



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOIYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	



TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR

Qurbonov Ilhom Jumaqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0000-0000-0000

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi bank tizimida kredit riskini boshqarish amaliyoti tahlil qilingan. Bank aktivlari tarkibida kredit qo'yilmalarining yuqori ulushi, muammoli kreditlar hajmining o'sishi va ularning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kredit riski darajasini baholashda stress-senariylarni tasniflash va kredit portfelini diversifikatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit riski, muammoli kreditlar, kredit portfeli, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxiralari, stress-test, diversifikatsiya.

Аннотация. В статье проанализирована практика управления кредитным риском в банковской системе Республики Узбекистан. На основе статистических данных рассмотрены высокая доля кредитных вложений в структуре активов банков, рост объема проблемных кредитов и их отраслевое распределение. По результатам исследования предложены классификация стресс-сценариев при оценке уровня кредитного риска и меры по диверсификации кредитного портфеля.

Ключевые слова: кредитный риск, проблемные кредиты, кредитный портфель, резервы на возможные потери, стресс-тест, диверсификация.

Abstract. The article analyses credit risk management practice in the banking system of the Republic of Uzbekistan. Based on statistical data, it examines the high share of loans in bank assets, the growth of non-performing loans and their sectoral distribution. The findings substantiate proposals for classifying stress scenarios in credit risk assessment and for diversifying the loan portfolio.

Keywords: credit risk, non-performing loans, loan portfolio, loan-loss provisions, stress test, diversification.

KIRISH

Kredit institutlari faoliyatida vujudga keladigan risklar ichida kredit riski ta'sir doirasining kengligi va yo'qotish ehtimolining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Xalqaro ekspertlarning baholashlariga ko'ra, bank faoliyatidagi jami risklarning qariyb 60 foizi aynan kredit riski hissasiga to'g'ri keladi. Buning asosiy sababi bank aktivlarining mutlaq katta qismi kredit qo'yilmalaridan iborat ekanligidir: 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakat bank tizimi aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi 66,9 foizni tashkil etgan [1].

So'nggi yillarda kreditlash hajmining yuqori o'sish sur'atlari sharoitida muammoli kreditlarning jadal ko'payishi kredit riskini boshqarish tizimining institutsional asoslarini mustahkamlash, stress-testlash metodologiyasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda kredit portfeli sifatini oshirish masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb qilib qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini isloh qilish strategiyasini belgilovchi farmonlarida ham kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish vazifalari aniq belgilab qo'yilgan [2]. Mazkur maqolaning maqsadi bank tizimida kredit riskini boshqarish amaliyotini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit riskining nazariy asoslari xorijlik olimlar ilmiy ishlarida keng yoritilgan. F.Nayt risklarni o'lchanadigan (aniq) va o'lchanmaydigan (noaniq) toifalarga ajratib, aniq risklarni statistik va matematik modellashtirish orqali baholash mumkinligini asoslab bergan [3]. P.Rouz bank risklarini birinchi va ikkinchi darajali turlarga tasniflab, kredit riskini hal qiluvchi risklar qatoriga kiritgan [4]. O.Lavrushin risklarni boshqarishda matematik usullar va modellashtirishdan foydalanish, kapital yetariligidini aniqlash masalalariga e'tibor qaratgan [5].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham kredit riski masalalari muhim o'rin egallaydi. Sh.Abdullayeva bank risklari ichida kredit riskini asosiy risk sifatida talqin etib, atamashunoslikni xalqaro amaliyotga moslashtirishni taklif qilgan [6]. F.Xolmamatov kredit risklarini to'g'ri boshqarish vaqtida to'lanmagan kreditlar miqdoriga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, banklarning ichki kredit riskini baholash modellarini ishlab chiqishini asoslab bergan [7]. D.Nafasov



esa risklarni boshqarishda risk-menejmentdan keng foydalanishni samarali vosita sifatida ko'rsatadi [8]. Ushbu izlanishlar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, biroq mamlakat bank tizimida muammoli kreditlarning so'nggi dinamikasini hisobga olgan holda kredit riskini baholash mezonlarini aniqlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, guruhlash hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy barqarorlik sharhlari, Statistika agentligi ma'lumotlari va tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari xizmat qilgan. Tahlil 2020–2025-yillar oralig'ini qamrab oladi. Maqolani tayyorlash jarayonida adabiyotlarni dastlabki saralash, jadval ma'lumotlarini formatlash va matnni lisoniy tahrirlashda sun'iy intellekt vositalaridan taxminan 5 foiz hajmda yordamchi vosita sifatida foydalanildi; barcha statistik ma'lumotlar, tahlil va xulosalar muallif tomonidan birlamchi manbalar asosida mustaqil shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillarda tijorat banklari kredit portfeli tarkibida eng katta ulush sanoat tarmog'iga to'g'ri kelgan. Biroq ushbu yo'nalishning ulushi 2020-yildagi **36,9 foizdan** 2024-yilda **29,0 foizgacha** kamaygan, ya'ni **7,9 foiz bandga** qisqargan. Bu holat bank kreditlarining tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyalanayotganini hamda kredit resurslarining boshqa yo'nalishlarga qayta taqsimlanayotganini anglatadi. Sanoat tarmog'i iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, kreditlar konsentratsiyasini kamaytirish risklarni boshqarish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining kredit portfelidagi ulushi tahlil davrida nisbatan barqaror saqlangan. Mazkur ko'rsatkich 2020-yildagi **10,1 foizdan** 2024-yilda **9,0 foizgacha** pasaygan. Qurilish hamda transport va kommunikatsiya sohalarida ham kredit ulushining kamayishi kuzatilgan. Xususan, transport va kommunikatsiya tarmog'ining ulushi **9,6 foizdan 6,0 foizgacha**, qurilish tarmog'ining ulushi esa **2,7 foizdan 2,0 foizgacha** qisqargan. Bu esa banklar tomonidan mazkur tarmoqlarda risklarni yanada ehtiyotkorlik bilan baholash amaliyoti kuchayganligini ko'rsatadi.

Savdo va xizmat ko'rsatish sohasining kredit portfelidagi ulushi 2020–2024-yillarda **7–8 foiz** atrofida saqlanib qolgan. Mazkur ko'rsatkichning deyarli o'zgarmasligi ichki iste'mol bozori va xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi barqaror o'rnini aks ettiradi. Shu bilan birga, ushbu tarmoq kreditlari qisqa muddatli aylanma mablag'larni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgani sababli kredit risklari sanoat yoki infratuzilma loyihalariga nisbatan pastroq darajada shakllanadi.

Eng sezilarli o'zgarish jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarda kuzatilgan. Ularning kredit portfelidagi ulushi 2020-yildagi **19,8 foizdan** 2024-yilda **33,0 foizga** yetib, **13,2 foiz bandga** oshgan. Bu, avvalo, iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari hamda chakana bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi. Chakana kreditlashning kengayishi banklar daromadlilikini oshirish imkonini bersa-da, aholi daromatlari pasaygan sharoitda muammoli kreditlar ulushining ortishi xavfini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli jismoniy shaxslarni kreditlashda skoring tizimlari va risklarni baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, tahlil natijalari tijorat banklari kredit portfeli tarkibida tarmoqlar kesimida diversifikatsiya jarayoni kuchayganini ko'rsatadi. Sanoat va transport sohalar ulushining qisqarishi, chakana kreditlash ulushining esa ortishi banklarning biznes modelida muayyan o'zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi. Kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha muvozanatli shakllantirilishi banklarning kredit riskini kamaytirish, aktivlar sifatini yaxshilash hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi(1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi, foizda¹

Tarmoq	2020	2021	2022	2023	2024
Sanoat	36,9	36,0	32,5	30,0	29,0
Qishloq xo'jaligi	10,1	10,7	10,8	10,0	9,0
Qurilish	2,7	2,8	2,7	3,0	2,0
Savdo va xizmat	7,2	8,4	7,4	7,0	7,0
Transport va kommunikatsiya	9,6	8,8	7,6	7,0	6,0
Jismoniy shaxslar	19,8	21,3	25,9	32,0	33,0
Boshqa sohalar	12,3	11,2	13,2	11,0	12,8
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1 Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kredit portfeli tarkibida ikkita yetakchi yo'nalish – sanoat va jismoniy shaxslar mavjud. Sanoat tarmog'ining ulushi 2020-yildagi 36,9 foizdan 2024-yilga kelib 29 foizga qadar pasaygan bo'lsa, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ayni davrda 19,8 foizdan 33 foizga ko'tarilib, yetakchi o'ringa chiqqan. Qolgan tarmoqlar ulushi 10 foizdan oshmasligi kredit portfeli diversifikatsiyasi darajasi pastligini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslar kreditlari ulushining ortishi kredit riski bilan birga likvidlik riskini ham kuchaytiradi, chunki bunday kreditlarning aksariyati qisqa muddatli depozitlar hisobidan moliyalashtiriladi.

Kredit riski darajasini baholashda eng muhim ko'rsatkichlardan biri muammoli kreditlar (Non-Performing Loans – NPL) hajmi hamda ularning jami kredit portfelidagi ulushi hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar kredit portfelining sifati, qarz oluvchilarning to'lov intizomi va banklarning kredit riskini boshqarish samaradorligini aks ettiradi. Muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning daromadlilikiga, likvidligiga va kapital yetarililigiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, natijada moliyaviy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli bank tizimida NPL dinamikasini muntazam tahlil qilish kredit riskini baholash va samarali boshqarishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston bank tizimi bo'yicha muammoli kreditlar hajmi hamda ularning jami kreditlardagi ulushi dinamikasi keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Bank tizimi bo'yicha muammoli kreditlar ko'rsatkichlari, yil boshiga mlrd so'mda²

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Jami kreditlar	276 975	326 386	390 049	471 406	533 121
Muammoli kreditlar	5 785	16 974	13 992	16 621	21 185
Ulushi, foizda	2,1	5,2	3,6	3,5	4,0

Tahlil natijalariga ko'ra, jami kredit portfeli so'nggi besh yilda deyarli 2 baravar oshib, 533 trln so'mga yetgan. Biroq muammoli kreditlarning o'sish sur'ati kredit portfeli o'sishidan ancha jadal kechgan: ularning summasi 2021-yildagi 5,8 trln so'mdan 2025-yilga kelib 21,2 trln so'mga, ya'ni 366,2 foizga oshgan. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2,1 foizdan 4,0 foizgacha ko'tarilgan. Xalqaro amaliyotda ushbu ko'rsatkichning 3 foiz atrofida bo'lishi tavsiya etiladi; 5 foizdan oshganda esa vaziyat xatarli deb baholanadi. Quyidagi diagrammada muammoli kreditlar summasi va ulushining dinamikasi aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. Bank tizimida muammoli kreditlar summasi va ulushining dinamikasi (2021–2025)³

Diagramma muammoli kreditlar hajmining barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi. Bunday sharoitda kredit riskini boshqarishda stress-test o'tkazish va stress-ssenariylarni aniq tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muammoli kreditlar ulushining oshishi omilini stress-ssenariylar bo'yicha quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq: 2 foiz bo'lganda "barqaror ssenariy", 3 foiz bo'lganda "stressli ssenariy" va 5 foiz

² Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

³ Manba: 2-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



bo'lganda "inqirozli ssenariy". Ushbu yondashuv banklarga risk darajasini oldindan baholash va tegishli chora-tadbirlarni rejalashtirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi. Birinchidan, bank aktivlari tarkibida kreditlarning yuqori ulushi (66,9 foiz) va kredit portfelining past diversifikatsiyasi sharoitida kredit riski darajasi yuqori bo'lib qolmoqda; shu bois banklar kredit portfeli strukturasi qayta ko'rib chiqishi va tarmoqlar bo'yicha muvozanatni ta'minlashi lozim.

Ikkinchidan, muammoli kreditlarning jadal o'sishini inobatga olib, kredit riskini boshqarishda stress-ssenariylarni 2 foiz, 3 foiz va 5 foizli chegaralar bo'yicha "barqaror", "stressli" va "inqirozli" deb tasniflash tavsiya etiladi.

Uchinchidan, kredit sifatini tasniflashda shaffoflikni oshirish va muammoli kreditlar bo'yicha talab etilgan zaxirani o'z vaqtida shakllantirish bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «**Moliyaviy barqarorlik sharhi**». – Toshkent, 2023. – <https://cbu.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-son Farmoni. – 2020-yil 12-may. – <https://lex.uz/docs/4811025>
3. Knight F. H., Jones D. E. *Risk, Uncertainty and Profit*. – Beard Books, 2002. – 381 p.
4. Rouz P. S. *Bankovskiy menedjment*. – M.: DELO LTD., 1995. – S. 142.
5. Lavrushin O. I., Valenseva N. I. *Bankovskiye riski: Uchebnoye posobiye*. – M.: KNORUS, 2007. – 232 s.
6. Abdullayeva Sh. Z. *Bank risklari va kreditlash*. – T.: Moliya, 2002. – 304 b.
7. Xolmamatov F. K. *Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish*: i.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 25 b.
8. Nafasov D. B. Bank risklarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2017. – № 1. – B. 1–9.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>